

О՛РТА ОСИЙОНИ О՛РАБ ТУРГАН ЙИРИК СИЙОСИЙ КУЧЛАР РОССИЯ, ХИТОЙ ВА ЕРОН УЛАР О՛РТА ОСИЙО УЧУН ХАВФ ЙОКИ ХАМКОР?

Qadirberganov Bexruz

Ixtisoslashgan maktab agentligi tizimidagi maktab o՛quvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O՛rta Osiyoni o՛rab turgan yirik siyosiy kuchlar- Rossiya, Xitoy va Eronning mintaqadagi roli va ta՛siri tahlili qilindi. O՛rta Osiyo uchun bu uchta davlat alohida-alohida xavf va hamkorligi ko՛rib chiqildi. Rossiyaning an՛anaviy siyosiy ta՛siri, Xitoyning iqtisodiy munosabatlari va Eronning geosiyosiy maqsadlari O՛rta Osiyo davlatlari uchun har doim qiyin vaziyatlarga solib keladi. Maqola, bu davlatlar bilan afzallik va xavf-xatarlari, shuningdek, O՛rta Osiyo davlatlarining o՛z milliy manfaatlarini himoya qilishdagi ehtiyotkorlik va mustaqillikni saqlashga intilishi tahlil qilindi. Shuningdek, mintaqadagi geosiyosiy vaziyatning kelajagi va bu kuchlar o՛rtasidagi aloqalar qanday rivojlanishi haqida xulosalar keltirildi.

Kalit so՛zlar: O՛rta Osiyo, Rossiya, Xitoy, Eron, geosiyosiy ta՛sir, xavf va hamkorlik, iqtisodiy aloqalar, siyosiy ta՛sir, xavfsizlik, KHSHT va SHHT, energetika, siyosiy mustaqillik.

O՛rta Osiyo mintaqasi tarixdan yirik siyosiy va iqtisodiy kuchlarni e՛tiborini tortib kelgan. Rossiya, Xitoy va Eron mintaqaga ta՛sir o՛tkazish uchun turli strategiyalarni amalga oshirilayotgan yirik davlatlar hisoblanadi. O՛rta Osiyo mamlakatlarning geografik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va iqtisodiy imkoniyatlari bu davlatlar uchun muhim strategik ahamiyatga ega.

Rossiya tarixiy aloqalar va strategik hamkorlik:

Rossiya uchun O՛rta Osiyo tarixan strategik ahamiyatga ega bo՛lgan hududdir. XX asrning oxiridan beri Rossiya O՛rta Osiyo davlatlarining siyosiy va iqtisodiy faoliyatiga bevosita va bilvosita ta՛sir o՛tkazib keladi. Bugungi kunda ham Rossiya, asosan, O՛rta Osiyo davlatlari bilan xavfsizlik sohasida, xususan, KXSHT va SHHT (Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti va Shanxay hamkorlik tashkiloti) doirasidagi aloqalarni saqlab kelmoqda.

Rossiyaning bu hududdagi ta՛siri, ba՛zan O՛rta Osiyo davlatlarining o՛z siyosatini erkin olib borishiga to՛squinlik qilishi mumkin. Ba՛zan esa suverenitetiga tahdid solishi ham mumkin.

Hamkorlik jihatlari xavfsizlik, energetika va transport: Rossiya O՛rta Osiyo bilan xavfsizlik tashkilotlari orqali hamkorlik qiladi.

Rossiya O՛rta Osiyo nefti va gazining asosiy eksport yo՛nalishi hisoblanadi. Bu resurslar Rossiya orqali Yevropaga, Xitoyga va boshqa mintaqalarga eksport qilinadi.

Rossiyaning "Gazprom" kompaniyasi va boshqa energetika gigantlari O'rta Osiyo gazini sotishda muhim ro'l o'ynaydi.

Xavf jihatlari mustaqillikka tahdid va iqtisodiy qaramlik: Rossiya mintaqa davlatlarini o'z ta'siri ostida ushlab turishga harakat qiladi. Bu esa O'rta Osiyo davlatlarining suverenitetiga tahdid soladi. Rossiyaning O'rta Osiyo siyosatidagi agressiv harakatlari, Ukraina urushidan so'ng, mintaqa davlatlarini xavotirga solmoqda. Shuningdek, Rossiyaning prapaganda telekanallari O'rta Osiyo davlatlari uchun ochiqchasiga tahdid va suverenitetiga hurmatsizlikdir.

Iqtisodiy qaramlik : Rossiya iqtisodiy qaramlik orqali o'z ta'sirini kuchaytirishga harakat qilmoqda. O'rta Osiyo eksport bozorining ko'p sohalarini Rossiya bilan bog'liq, bu esa O'rta Osiyo davlatlari suverenitetiga zarar yetkazishi mumkin.

Xitoy yangi iqtisodiy hamkor: Xitoyning O'rta Osiyo bilan qiziqishi so'nggi yillarda ancha ortdi. Xitoyning " Bir kamar, bir yo'l " tashabbusi O'rta Osiyoni tranzit hududi sifatida kengaytirishga qaratilgan. Xitoyning bu hududdagi iqtisodiy faoliyati, masalan qazib olish, energiya resurslari va infratuzilma loyihalari iqtisodiy rivojlanish uchun imkoniyat yaratmoqda. Biroq, Xitoyning O'rta Osiyodagi ta'siri bir necha xavflarni keltirib chiqaradi. Xitoyning iqtisodiy mustahkamligi ba'zan O'rta Osiyo davlatlarining resurslarini boy berishi va Xitoyning ta'sir doirasiga kirishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, Xitoy ichki siyosatidagi harakatlar, masalan, "uyg'urlar masalasi" yoki hududiy da'volari O'rta Osiyo davlatlariga xavf tug'dirishi mumkin.

Eron O'rta Osiyo davlatlari bilan o'zining tarixiy va madaniy aloqalarni rivojlantirayotgan davlatlardan biridir. Afg'oniston bilan qo'shni bo'lgan Eron O'rta Osiyo davlatlari bilan siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga intilmoqda. Ayniqsa, Eronning nefti va gazi O'rta Osiyo mamlakatlari energetika bozoriga katta ta'sir o'tkazishi mumkin.

Hamkorlik jihatlari: Eron O'rta Osiyo davlatlari bilan savdo aloqalari kuchaytirishi mumkin. Eron ta'siri O'rta Osiyo davlatlari uchun Rossiya va Xitoy bilan munosabatlarining muvozanatini ta'minlashi mumkin.

Eronning mintaqadagi ta'siri O'rta Osiyo davlatlari tomonidan ishonchli deb baholanmasligi mumkin. Chunki, Eronning yadro dasturi va geosiyosiy strategiyalari ba'zi davlatlar tomonidan xavfli sifatida qabul qilinishi mumkin.

Rossiya, Xitoy va Eronning O'rta Osiyo davlatlari bilan aloqalari bir vaqtning o'zida ham hamkorlik, ham xavf tug'dirishi mumkin. Rossiya va Eron O'rta Osiyo uchun energetika sohalarida muhim hamkor bo'lsa, Xitoy esa mintaqadagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishi mumkin. Biroq, bu davlatlarning mintaqadagi ta'siri ba'zan siyosiy mustaqillikka tahdid soladi. O'rta Osiyo davlatlari uchun asosiy vazifa ushbu

davlatlar bilan muvozanatli hamkorlikni yoʻlga qoʻyish va oʻz milliy manfaatlarini himoya qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shirinov I. Rossiya, Xitoy va AQSH oʻrtasidagi Oʻrta Osiyodagi geosiyosiy raqobat. Yevrosiyo studentlarni jurnali.
2. Zang S. Eronning Oʻrta Osiyo davlatlari bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalari. Oʻrta Osiyoni koʻrib chiqish
3. Buxan B & Waver. Oʻrta Osiyo atrofidagi siyosiy kuchlarning geosiyosiy oʻrni. Cambridge universiteti nashriyoti.